



BOLALARDA DUDUQLANISHNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA KORREKSION-LOGOPEDIK ISHLAR

Salomova Komola Raxmatjon qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Logopediya yo'nalishi magistranti

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil

Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil

Jurnal soni: 16-B

Maqola raqami: 12

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1297>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

duduqlanish, etiologiya, anatomo-fiziologik omillar, sotsial-ruhiy sabablar, irsiyat, psixik travma, nerv tizimi, motorika buzilishlari, logopedik ritmika, korreksion-pedagogik ish, musiqiy-harakat mashqlari, iteratsiya, nutqiy rivojlanish, kinestetik funksiyalar.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada duduqlanishning kelib chiqish omillari, uning anatomo-fiziologik hamda sotsial-ruhiy sabablariga oid ilmiy qarashlar tizimli ravishda tahlil qilingan. Duduqlanishning paydo bo'lishida irsiyat, markaziy nerv sistemasining funksional yetilmaganligi, infeksiya va somatik kasalliklar, psixik travmalar, oiladagi noqulay sharoit va noto'g'ri nutqiy tarbiya kabi omillarning o'rni yoritilgan. Tadqiqotlarda "zamin" va "zarba" omillarining farqlanishi, ularning duduqlanishni yuzaga keltirishga bo'lgan bevosita hamda bilvosita ta'siri ilmiy asosda ochilgan, olingan xulosalarda foydalanilgan. Duduqlanuvchi bolalarda umumiy va artikulyatsion motorika buzilishlari, harakatlarning muvofiqlashtirilmaganligi, muskullar tonusi o'zgarishlari va kinestetik funksiyalar zaifligi haqida mutaxassislar fikrlari bayon etilgan. Shuningdek, logopedik ritmikaning duduqlanishni korreksiyalashdagi ahamiyati, nutqiy va musiqiy-harakat mashqlari orqali nafas, motorika, muvozanat, irodaviy boshqaruv kabi funksiyalarni rivojlantirishning metodik asoslari ko'rsatib berilgan. Diqqatni faollashtiruvchi mashqlar, musiqaning ritmik va emotsional ta'siri hamda o'yin elementlaridan foydalanish duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning samaradorligini oshiruvchi muhim vosita sifatida ta'riflanadi.

Kirish. Har bir nutq kamchiligidan sababi ikki turli bo'ladi. Birinchi anatomo-fiziologik va ikkinchisi sotsial-ruhiy sababdir. Anatomo-fiziologik sabablarga ko'ra duduqlanish turli xil infeksiya somatik kasalliklar – qizamiq, meningitlar natijasida kelib chiqishi mumkin. Irsiyatga moyillik ham anatomo-fiziologik sabablarga kiradi. Irsiyat 30% duduqlanuvchilarda hal qiluvchi ahamiyatga kasb etgani chex olimi Zeeman tadqiqotlarida ko'rsatilgan. Oilada bolaga noto'g'ri tarbiya berilishi, notinchilik, bolaga noto'g'ri nutqiy tarbiya, ikki tillilik, nagruzkani bolani samatik ahvolini hisobga olmasdan oshirib yuborish kabilardir. Nerv sistemasi, organizm sust, zaif bo'lsa yuqoridagi faktorlarning ta'siri katta va kuchli bo'ladi. Iteratsiya –unli tovushlarni ko'shib gapirish, tez-tez gapirish. Keyinchalik bu patologik stereotip duduqlanishga o'tadi. Taqlid qilish orqali ham duduqlanish kelib chiqadi. Oiladagi notinchilik, er-xotin janjali, bolaning nerv sistemasiga qattiq zarba berib ta'sir qiladi. Urush-janjall natijasida qattiq nutq buzilishi kuchayadi. Duduqlanish paydo bo'lishi uchun bitta asosiy sabab bo'lishi kerak. Nerv sistemasi zaif bo'lishi kerak, moyillik bo'lishi kerak. Agar mana shu asosiy sabab bo'lsa yuqoridagi anatomo-fiziologik va sotsial-ruhiy sabablar ta'sirida albatta duduqlanish kelib chiqadi¹.

Adabiyotlar tahlili. Nutqning ritmik-intonatsion tashkil topishi, uning psixofiziologik asoslari hamda nutq buzilishlari, xususan, duduqlanish mexanizmlarini o'rganish logopediya va neyropsixologiya yo'nalishida ko'plab ilmiy izlanishlarga sabab bo'lgan. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, duduqlanish ko'p omilli, murakkab psixofiziologik hodisa sifatida talqin qilinadi va turli tadqiqotchilar uni turlicha yondashuvlar asosida izohlaydilar.

Klassik logopedik adabiyotlarda (L.S.Vygotskiy, R.E.Levina, V.A.Kallistratova) duduqlanishning kelib chiqishida markaziy nerv sistemasining yetarli darajada pishmaganligi, oliy nerv faoliyatidagi nomutanosibliklar va nutq motorikasining rivojlanmaganligi asosiy omillar sifatida ko'rsatiladi. Zamonaviy neyrolingvistik tadqiqotlar (A.Guitar, B.Conture) esa duduqlanishni neyron tarmoqlar faoliyatidagi uzilishlar, harakatni rejalashtirish va ijro funksiyasidagi kechikishlar bilan bog'laydi².

Mahalliy olimlar, jumladan, M. Asqarova, S. Mavlonova va N. Raxmonqulova tadqiqotlarida duduqlanuvchi bolalarda psixomotor jarayonlarning nomutanosibligi, umumiy va mayda motorikaning sust rivojlanganligi, artikulyatsiya apparatining yetarlicha takomillashmaganligi alohida ta'kidlanadi³.

Duduqlanish etiologiyasida "zamin" (biologik) va "zarba" (psixogen) omillar tasnifi ko'plab logopedlar tomonidan qo'llanilgan:

N.S. Samoylenko, B. Kazakov, A. Yarotskiy. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki:

zamin omillar: irsiy moyillik, homila davridagi patologiyalar, tug'ruqdagi jarohatlar, somatik kasalliklar;

zarba omillar: kuchli qo'rquv, psixik travma, oiladagi ziddiyatlar, noto'g'ri nutqiy tarbiya, ikki tillilik.

Bu tasnif zamonaviy logopediya amaliyotida duduqlanish profilaktikasi va korreksiyasi strategiyalarini ishlab chiqishda asosiy metodologik tamoyil sifatida qaraladi.

Duduqlanuvchi bolalarda harakat muvofiqligi, mushak tonusi, nafas va artikulyatsiya harakatlaridagi nomutanosibliklar haqida N.S.Samoylenko, A.M.Shklovskiy, Y.Sobibor tadqiqotlari alohida diqqatga sazovor. Samoylenko bolalarni motor rivojlanishiga ko'ra to'rt tipga ajratib, har bir tip uchun nutq ritmikasi va motor buzilishlarining o'ziga xos ko'rinishlarini tavsiflaydi⁴.

Bu ilmiy yondashuv duduqlanishni nafaqat nutq organlari faoliyati, balki butun psixomotor tizimning buzilishi sifatida talqin etish imkonini beradi.

Logopedik ritmika bo'yicha D.M.Shmatko, V.G.Aseyev, G.A.Volkova tadqiqotlarida musiqiy-ritmik harakatlar orqali nutq jarayonini me'yorlashtirishning psixofiziologik mexanizmlari yoritilgan⁵. Ushbu manbalarda:

musiqaning ritmik tuzilishi;

harakatlarning uyg'unlashuvi;

nutqiy nafasni boshqarish;

emotsional barqarorlikni ta'minlash

duduqlanishni bartaraf etishda muhim rol o'yinashi ilmiy asoslanadi.

Mahalliy tadqiqotlarda (Z.Buriyeva, N.Axunova) musiqiy-harakat mashqlari bolaning psixomotor rivojlanishini faollashtirishi, nutq ritmini tiklashi va qo'rquvni kamaytirishi qayd etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi paytda sabablarning ikkita guruhini ajratish mumkin: zaminini va zarbalarni. Bunda ba'zi bir etiologik faktorlar duduqlanishni rivojlanishiga ta'sir qilishlari va bevosita uni chaqirishlari, keltirilib chiqishlari mumkin. Zamin deb hisoblanmish sabablarga quyidagilar kiritiladi.

Ota-onalarning asabiyligi, infeksiya va somatik kasalliklari, markaziy nerv sistemasining sustlashgan yoki tez tashkiliy funksiyalari.

Duduqlanuvchining nevroitik xususiyatlari, kechqurungi qo'rqish, enurez yuqori qo'zg'aluvchanlik, emotsionallik.

¹ Миронова С. «Планирование логопедической работы с заикающимися детьми». – Москва, 1999. – 45 с.

² Самойленко Н. С. Заикание у детей: диагностика и коррекция. – Москва: Владос, 2012. – 256 с.

³ Пулатова Х.М. Логопедик ритмика. – Тошкент, 2014. – Б. 123.

⁴ Логопедия. /Под ред. Л.С. Волковой, С.Н. Шаховской. – М., 2013. – 91 с.

⁵ Пулатова Х.М. Логопедик ритмика. – Тошкент, 2014. – Б. 23.

Konstitutsional moyillik – vegetativ nerv sistemasining kasalligi, oliy nerv faoliyatining yuqori darajadagi buzilishlari, psixik travmalarga moyilik.

Irsiylik. Duduqlanish nutq apparatining tug'ma zaifligi zaminida rivojlanadi, qaysiki u retsessiv belgi sifatida irsiyat orqali o'tishi mumkin.

Bosh miyaning jarohatlanishi homiladorlik paytidagi va tug'ish paytidagi travmalar, asfiksialar, turli xil kasalliklarda, infeksiya, travmatik va moddalar almashinuvi buzilishi.

Yuqorida ko'rsatilgan sabablar somatik va ruhiy sohalarda patologik qo'zg'alishlarni chaqirib, nutqiy rivojlanishni kechikishiga nutq buzilishlariga olib keladi va duduqlanishni rivojlanishiga imkon yaratadi. Yaxshi bo'lmagan sharoitga quyidagilar kiradi:

- bolaning jismonan sustligi;
- miya faoliyatining yosh xususiyatlari;

Bosh miyaning katta yarim sharlari asosan bola hayotining 5-yiliga kelib shakllanadi. U yoshda bosh miya faoliyatidagi funksional assimetriya tashkil qilinadi. Nutqiy faoliyat ontogenetik jihatdan birmuncha differensiallashgan va kech yetiladigan, ayniqsa tez zararlanadigandir⁶. Ayniqsa qizlarga nisbatan o'g'il bolalarda kech yetilishi ularni nerv sistemalarini turg'un emasligini keltirib chiqaradi. Nutqning tezlashgan rivoji (3-4 yosh). Kattalar bilan muloqotning ta'sirida nutqning kommunikativ bilish va boshqaruvchi faoliyatlari tez rivojlanadi. Ko'p bolalarda fiziologik xarakterni kasb etgan bo'g'in va so'zlarni qaytarishi (iteratsiya) kuzatiladi. Bolaning ruhiy yashirin cheklanganligini atrofdagilar bilan normal bo'lmagan munosabatlar zaminidagi yuqori reaktivlik atrofdagilar talabi va uni anglashni darajasi o'rtasi konflikt:

- kattalar va bolalar orasidagi ijobiy emotsional kontaktlarning yetishmasligi: motorikasi, ritmni sezish, mimika-artikulyator harakatlarni rivojlantirishni yetishmasligi.

Yuqorida sanab o'tilgan yaxshi bo'lmagan sharoitlarni u yoki bunisini mavjudligida ruhiy buzilish yoki duduqlanishni keltirib chiqarish uchun o'zining kuchi bo'yicha favqulotda bo'lgan u yoki bu qo'zg'atgichni bo'lishi yetarlidir. Zarba hisoblanmish sabablar guruhiga anatomo-fiziologik hamda psixik va sotsial faktorlar kiritiladi.

Anatomo-fiziologik sabablar: ensefalit natijasidagi faktorlar jismoniy kasalliklar; jarohatlar – tug'ruq vaqtidagi asfiksialar, miyaning organik buzilishi natijasidagi harakatlarni boshqaruvchi po'stloq osti mexanizmlari jarohatlanishi mumkin, miyaning chayqalishi, nutq markaziy apparatlarining sustlashtiruvchi, turli xil intoksikatsiya va boshqa kasalliklar natijasida nerv sistemasining, charchash nagruzkani haddan tashqari oshishi, kasalliklar bilan kasallanish – tif, qizamiq, raxit; ichki sekresiya kasalliklari; burun, halqum kasalliklari; dislaliya, dizartriya va nutqiy rivojlanishni sustlashganligi hollarda artikulyatsion apparatning takomillashmaganligi.

Ruhiy va sotsial sabablar: qisqa muddatli bir daqiqali – psixik travmalar (qo'rquv, vahima); uzoq ta'sir etuvchi ruhiy travmalar (oiladagi noto'g'ri tarbiya, erkalanish, surunkali, konfliktli iztiroblar, uzoq muddatli salbiy emotsiyalar, bolaga haddan tashqari e'tibor berish); o'tkir og'ir ruhiy travma: qattiq tasodifdan vujudga keluvchi iztiroblar, qaysiki ular o'tkir affektiv reaksiyani keltirib chiqaradi, ular: vahima holi, haddan tashqari xursand bo'lish; bolalikdagi davrda nutqning noto'g'ri shakllanishi, nafas olayotganda gapirish, tez gapirish, tovushlar talaffuzidagi buzilishlar, ota-onalarning tezlashgan, asabiylashgan nutqlari, kichik bog'cha yoshda bolalarni haddan ziyod usabiy materiallar bilan qurollantirish, yoshiga va tafakkuriga mos bo'lmagan holda nutqiy materialni murakkablashtirish, bog'cha yoshida bir vaqtning o'zida bir qancha tillarni egallash, o'zlashtirishi, odatda qaysidir tilda duduklanishni keltirib chiqaradi; duduklanuvchilarga taqlid qilish.

Bunday ruhiy induksiyaning ikkita shaklini ajratadilar:

Passiv – bola duduklanuvchi nutqini eshitib, beixtiriy duduklana boshlaydi.

Aktiv – bola duduklanuvchi nutqidan nusxa olib unga taqlid qiladi⁷.

Chapaqaylikni bartaraf qilish doimiy eslatishlar, talablar, bolaning oliy nerv faoliyatini dizarganizatsiya qiladi va bolani nevroitik va psixopatik holgacha to duduklanishni vujudga kelishigacha olib kelishi mumkin; o'qituvchining bolaga noto'g'ri munosabati haddan tashqari talabchanlik – duduklanishni vujudga kelish uchun zarba bo'lib xizmat qiladi.

Nutqida buzilishi bo'lgan kishilarda sog'lomlashtiruvchi vazifani hal qilish natijasida suyak-muskul apparatlari mustahkamlanadi, nafas olish, motor, sensor funksiyalar rivojlanadi, muvozanat tuyg'usi, to'g'ri qad-qomat, qadam tashlash, chiroyli harakat tarbiyalanadi. Tadqiqotchilar duduklanishda umumiy motorika bilan nutqning aloqasi holatiga alohida e'tibor qaratganlar.

Tadqiqot natijalari. Umumiy motor qobiliyatida duduklanadigan bolalardagi mimikali motrikadagi kamchilik bilini qoladi. V.M.Aristovning fikricha, u nutq bilan har doim bog'liq bo'lmaydi va "kichik organik simptomlarga" qarashli bo'lishi mumkin, negaki duduklanishning ba'zi shakllari asosida "bosh miyadagi kinestik nutq hujayralari afferent tizimining shikastlanishi" yotadi. Bu nutq organlarining statikasi va dinamikasining buzilishiga olib keladi. Motor funksiyasining organik buzilishi shunday ko'rinadi:

- to'kilish simptomlari – oddiy mashqlarni ishlab chiqarishning mumkin emasligi;

- tilning giperkinez, tremor, fibrilolyar va fassikulyar qisqarishi;

- ataktik tartibsizliklar – u yoki bu harakatni birdaniga bajarishning mumkin emasligi (bajarish faqat ko'rish nazoratida bo'lishi mumkin);

- apraksis tartibsizliklar (yakka hollarda).

Agar duduklanuvchining yuz muskullarida ba'zi holsizlik bo'lsa, unda davolovchi gimnastika zarur.

N.S.Samoylenko, duduklanadigan bolalarda motorikaning rivojlanishi nutqiy rivojlanishdan ilgari yurishi yoki nutqdan orqada qolishi mumkin va alohida motor qobiliyatli duduklanadigan bolalar ham uchrashi mumkin deb hisoblaydi. N.S.Samoylenko motorikasining holatiga qarab duduklanadigan maktabgacha yoshdagi bolalarni to'rtta guruhga ajratadi⁸.

Birinchisi – tempida, ritmda, muskullar tonusida, mo'ljal olish va jamoaviy o'zaro munosabatlarda buzilishi bor bolalar. Bunda diqqat va faollik buzilmagan. Motorikadagi nuqsonlarga tez barham beriladi.

Ikkinchisi – motor munosabatida bo'sh qobiliyatli bolalar, harakatlarda chaqqonlik, tezlik, aniqlik yo'q. Tempi susaytirilgan, lanj e'tiborli, faollik sekin-asta uyg'onadi, hech qanday tashabbus yo'q. Vazifani o'zlashtirishni o'rganish uzoq vaqtini talab qiladi. Muskullar tarangligini tormozlantirish va harakatlarni muvofiqlashtirishni yaxshilash ustidagi ish yaxshi natijalar bermaydi. Yengil motor qoloqligi hollari ham bo'lishi mumkin.

Uchinchisi – muskullari kuchli tormozlangan bolalar. Qo'llarning holati tayoqqa o'xshab cho'zilgan, barmoqlar musht qilib siqilgan yoki kerilgan, qo'llarni harakat paytida bukilmaligi va yurganda oyoqlarning juda kam bukilishi. Qadam tashlaganda qo'llarni tebratmaslik, bir qo'lni tebratish yoki cho'zilgan qo'llarni oldinga itarib notabiiy tebratish va oyoqlarning harakati bilan muvofiqlashtirish. Bo'yin va yelkanning kuchli tormozlanishi. Bunday bolalar bilan ham jamoaviy, ham yakka tartib katta ish olib borish talab etiladi. Bolalar ko'pincha jamoaviy o'yinlardan bosh tortadilar, jiddiy yuz bilan, hech qanda hayajonlarini bildirmasdan yakka holda o'ynashni afzal ko'radilar, faol rollardan bosh tortadilar. Ular bilan ishlash uzoq muddat davom etadi.

To'rtinchisi – tez tempda ishlab chiqiladigan bemaqsad serob harakatlar bilan motorli tez ta'sirlanadigan bolalar. Bunday bolalar kamdan kam uchraydi. Ular uchun osoyishta holatda bo'lish bajarib bo'lmaydigan darajada qiyindir. Jamoaviy o'yinda o'z navbatlarini kutib turmaydilar, tanaffussiz harakatlarga intiladilar. Muskullar tonusi bir qancha tarang, o'yinga yuqor hayajonli munosabat kuzatiladi. Chopish va sakrash ularni kuchli ta'sirlantiradi. Faollik haddan tashqari yuqori: boshqalar uchun ham bajarishga tayyorlar, begona o'yinga aralashib ketadilar, tajovuzkor harakatlar ko'rsatadilar, rahbarlik rolini olishga intiladilar. Bunday bolalar bilan ishlash uzoq davom etadi, natijasi har doim ijobiy emas.

Muhokama. Duduklanadigan bolalarning harakatlantiruvchi tormozlanishi shularda ko'rinadiki, ular oson hayajonlanadilar, o'yin paytida behuda ovora bo'ladilar, sakraydilar, cho'kka tushadilar, qo'llarini silkitadilar, shular bilan o'z hayajonlarini ifoda etadilar. Harakatlari keskin, yetarlicha maqsadga qaratilmagan, muvofiqlashtirilmagan, nozik erkin harakatlantiruvchi aktlar to'xtalib shakllanadi, harakatlar ko'lamiga kengayadi.

Duduklanish nutq nuqsonni bilan logopedik korreksion ish olib borishda logopedik ritmika logopedik ishning muhim bo'limi hisoblanadi. Bu nutqiy tuzatish tarbiyasi maqsadlarida amalga oshiriladigan musiqali harakat, nutqiy xarakat, musiqali nutq

⁶ Логопедия. /Под ред. Л.С. Волковой., С.Н. Шаховской. – М., 2013. – 91 с.

⁷ Логопедия. /Под ред. Л.С. Волковой., С.Н. Шаховской. – М., 2013. – 58 с.

⁸ Логопедия. /Под ред. Л.С. Волковой., С.Н. Шаховской. – М., 2013. – 91 с.

topshiriqlari va mashqlari sistemasini o'zida aks ettiradi. Har qanday nutq nuqsonini koreksiyalashda logopedik ishlar bilan bog'langan holda logoritmikada mashq va o'yinlardan foydalaniladi. Buning uchun logoritmikani maqsadi, vazifalari va vositalarini logoped yaxshi bilishi kerak⁹. Harakat tizimining turli tuman buzilishlarini musiqa va so'z bilan uyg'unlashtirishda kishilarda sog'lomlashtiruvchi vazifani hal qilish natijasida tayanch harakat apparatlari mustahkamlanadi, nafas olish, motor, sensor funksiyalar rivojlanadi, muvozanat tuyg'usi, to'g'ri qad – qomat, qadam tashlash, chiroyli harakat tarbiyalanadi. Duduqlanuvchi bolalarning umumiy va mayda qo'l motorikalarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi logopedik-korreksion ish usullari samarali usullardan hisoblanadi:

Diqqat – e'tiborni faollashtiruvchi mashqlar.

Diqqatni shakllantirishda so'z, musiqa va salohiyat asosiy omillar bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, musiqa keng ko'lamda qo'llaniladi. Musiqiy ruhiyatning, ohang parchalari, ritmlari, registrlar yorqinligi, xarakteri hamda tovush kuchi va ijro etish shaklining almashinuvi mashqlarni tashkil etuvchi harakatlar almashinuvi boshqarishga imkon beradi, shuningdek, shug'ullanuvchilar e'tiborini musiqani o'zgartirishga, demak harakatni ham o'zgartirishga jalb etadilar.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tahlillar duduqlanishning kelib chiqishida anatomo-fiziologik va sotsial-ruhiy omillarning murakkab

o'zaro ta'siri mavjudligini ko'rsatadi. Markaziy nerv sistemasining funksional zaifligi, irsiy moyillik, somatik kasalliklar, homila va tug'ruq davridagi jarohatlar duduqlanish uchun zamin yaratadigan asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu zamin mavjud bo'lgan sharoitda qo'rquv, psixik travma, oilaviy muhitdagi notinchlik, noto'g'ri nutqiy tarbiya, ikki tillilik va haddan tashqari nutqiy yuklama kabi "zarba" omillar duduqlanishning shakllanishi va kuchayishiga sabab bo'ladi. Tadqiqot natijalari umumiy motorika, artikulyatsion apparat faoliyati, harakat muvofiqligi va muskullar tonusi kabi psixomotor ko'rsatkichlarning duduqlanish rivojlanishida bevosita rol o'ynashini tasdiqlaydi. Duduqlanuvchi bolalarda motor buzilishlari darajasiga ko'ra farqlanishi, nutq ritmining izdan chiqishi va psixomotor jarayonlarning nomutanosibligi alohida e'tibor talab qiladi. Logopedik ritmika, musiqiy-harakat mashqlari, nafas va motor mashqlari, ritmik nutqiy topshiriqlar nutqni me'yorlashtirish, psixomotor faoliyatni uyg'unlashtirish va emotsional barqarorlikni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekani bilan ajralib turadi. Shu bois duduqlanishni bartaraf etishda kompleks yondashuv psixologik qo'llab-quvvatlash, logopedik mashg'ulotlar, motor va nafas tizimini rivojlantiruvchi mashqlar uyg'unligida olib borilgan koreksion ish eng optimal natijani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Миронова С. Планирование логопедической работы с заикающимися детьми. – Москва. 1999. – 45 с.
2. Пўлатова Х.М. Логопедик ритмика. – Тошкент, 2014.
3. Логопедия. /Под ред. Л.С. Волковой., С.Н. Шаховской. – М., 2013.
4. Самойленко Н. С. Заикание у детей: диагностика и коррекция. – Москва: Владос, 2012. – 256 с.

5. Гитар Б. Заикание: этиология и лечение. – Санкт-Петербург: Речь, 2007. – 432 с.
6. Волкова Г. А. Логопедия: нарушения речи у детей. – Москва: Академия, 2019. – 368 с.
7. Шматко Д. М. Логоритмика в системе коррекции речи. – Москва: Владос, 2015. – 192 с.

⁹ Пўлатова Х.М. Логопедик ритмика. – Тошкент, 2014. – Б. 123.